

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA
TUTGAN O'RNI**

Jumayeva Dilafruz Hamroyevna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti katta o'qituvchisi, Buxoro sh

Xalilova Gulnoza Rasulovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti magistranti, Buxoro sh.

РОЛЬ СФЕРЫ УСЛУГ В ЭКОНОМИКЕ СТРАНЫ

Жумаева Дилафруз Хамроевна

*Бухарский инженерно-технологический институт, старший преподаватель, г.
Бухара.*

Халилова Гулноза Расуловна

Бухарский инженерно-технологический институт, магистр, г. Бухара.

THE ROLE OF THE SERVICE FIELD IN THE ECONOMY OF THE COUNTRY

Jumaeva Dilafruz Khamroevna

Bukhara Engineering and Technological Institute, senior teacher, Bukhara

Khalilova Gulnoza Rasulovna

Bukhara Engineering and Technological Institute, graduate student, Bukhara

Bugungi kunda mamlakatimizda xizmat ko'rsatish va servis sohasi mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning eng muhim manbai va omili hisoblanadi. Jahon tajribasi bugun aynan mazkur soha YaIMning shakllantirish, aholi bandligini ta'minlash, odamlarning hayot farovonligini oshirishda yetakchi o'rin tutishni ko'rsatmoqda. [1]

Xizmatlar sohasi bugungi kunda murakkab, ko'pqirrali mexanizm bo'lib, lekin zamonaviy iqtisodiyotimizning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmog'i hisoblanib, u o'z ichiga savdodan tortib transport, aloqa va axborotlashtirish, ta'lim, fan, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at, sport, maishiy va kommunal xizmatlar, texnik xizmatlar, bank-moliya, sug'urta, turizm, auditorlik-konsalting xizmatlari, mehmonxonalar, dam olish uylari, televideniye, radio, kino teatrlar, muzeylar kabi keng faoliyatni oladi. [2]

Rivojlangan mamlakatlarning amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, ishlab chiqarishni murakkablashuvi va bozorni texnik jihatdan murakkab bo'lgan tovarlar bilan to'ldirilishi natijasida xizmatlarga bo'lgan talab ham oshib bormoqda [3]. Bizning mamlakatimizda ham xizmatlarni turli yangi xillari paydo bo'lishi natijasida xizmatlar sohasi, ishlab chiqarish sohasiga nisbatan tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda [4]. Hozirgi kunda mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida band bo'lgan aholining yarmidan ortig'i shu sohada mehnat qilmoqda [5].

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

Har yilgi yangi yaratilayotgan ish o'rinlarining uchdan bir qismidan ortig'i ham shu soha hissasiga to'g'ri kelmoqda [6].

Xizmat – bu korxonalar va ayrim shaxslar tomonidan, aynan shunday ikkinchi tomonga ko'rsatiladigan faoliyat turi bo'lib, uni ushlab, ko'rib bo'lmaydi hamda u mijozning mulkiga aylanmaydi [7]. Xizmatni ko'rsatish natijasida, fizik mahsulot yaratilishi va yaratilmasligi ham mumkin. Xizmat insonlar va asbobuskuna yordamida ko'rsatilishi mumkin; mijozning ishtirokida va ishtirokisiz ko'rsatiladi; shaxsiy yoki korxonalar ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin; tijorat va notijorat xarakterga ega bo'lishi hamda xususiy va jamoat tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladi [8]. Biroq, har qanday xizmatlar, korxonaning marketing faoliyatiga kuchli ta'sir etadigan quyidagi to'rtta o'ziga xos xususiyatlarga egadir: ko'rib va ushlab bo'lmaslik, ishlab chiqarishni va iste'molni bir-biridan ajratib bo'lmaslik, sifatini tez-tez o'zgarib turishi va saqlab bo'lmaslik. Xizmatlar iqtisodiyot tarmoqlarining tez rivojlanayotgan eng istiqbolli sohalaridan biri hisoblanadi [9].

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi [10]. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi [11]. Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi [12]. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir [13]. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin [14].

Xizmatlar sohasi — bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar ishlab chiqarishni [15] o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi [16].

Hozirgi kunda intellektual inson mehnati o'ziga xos rivojlanish va ahamiyat kasb etmoqda, uning bo'linishi maxsus ilmiy tayyorgarlikni, ko'p sonli ish o'rinlarini, odamlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini yuqori darajadagi integratsiyalashuvni va ijtimoiy farovonlikni oshirishni talab qiladigan ko'plab mutaxassislik va kasblarni yaratmoqda [17]. Ushbu tendensiyalar xizmatlar sohasi va boshqaruv bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson faoliyatining boshqa sohalariga nisbatan uning jadal o'sishini belgilaydi [18]. Iqtisodiyotning sanoat va qishloq xo'jaligiga nisbatan yuqori daromadi unga xos xususiyatdir. Shu bilan birga, xizmatlar ro'yxati doimiy ravishda kengayib bormoqda [19].

U faoliyatning keng qamrovli sohalariga ega, ya'ni savdodan va transportdan moliyagacha, sug'urtadan va turli hil vositachiliklardan iborat. Mehmonxonalar va restoranlar, kiriyuvish korxonalari va sartaroshxonalar, o'quv va sport muassasalari, bank va moliya muassasalari, sanatoriyalar, turistik firmalar, aloqa va axborotlashtirish, internet xizmatlari, radio va telestansiyalar, maslahat firmalari, sog'liqni saqlash muassasalari, muzeylar, kino va teatrlar va boshqalar xizmatlar sohasiga kiradi [20]. Amaliyotda deyarli barcha korxona va tashkilotlar, u yoki bu darajada xizmatlar ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

va servis sohasi mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning eng muhim manbai va omili hisoblanadi. Jahon tajribasi bugun aynan mazkur soha YaIMni shakllantirish, aholi bandligini ta'minlash, insonlarning hayot farovonligini oshirishda yetakchi o'rin tutishini ko'rsatmoqda [21]. Bunga misol qilib, mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasining so'nggi yillarda tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligini ko'rsatish mumkin. Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo'lgan aholining yarmidan ortig'i xizmat sohasida mehnat qilmoqda. Har yilgi yangi yaratilayotgan ish o'rinlarining uchdan bir qismidan ortig'i shu soha hissasiga to'g'ri kelmoqda [22].

Bugungi kunga kelib, xizmatlar sohasini juda rivojlanib ketganligiga qaramay, xizmat tushunchasi haqida yagona bir yondashuv yo'qdir. Xizmat ko'rsatish orqali biron bir narsa yaratilmaydi, ya'ni xizmat orqali faoliyat ko'rsatiladi [23]. Xizmatlarga ko'pincha foydali faoliyatning barcha turlari kiritiladi. Xizmat bu– xizmat ko'rsatuvchi va iste'molchini bevosita o'zaro faoliyatining natijasidir, shuningdek, xizmat ko'rsatuvchini iste'molchi extiyojini qondirish bo'yicha faoliyatidir [24].

Xizmatlar bozori ikki sababalarga ko'ra boshqa bozorlarga umuman o'hshamaydi. Birinchidan, xizmatlar to u ko'rsatilmaguncha mavjud bo'lmaydi. Bu esa uni ko'rsatilmaguncha taqqoslashni va baholashni amalga oshirib bo'lmasligini bildiradi. Faqat kutilayotgan foyda va haqiqatda olingan natijalarni taqqoslash mumkin. Ikkinchidan, xizmatlarga yuqori darajadagi mavxumlik tegishlidir, bu esa mijozni noqulay xolatga tushuradi, xizmatni ko'rsatuvchilar esa o'z xizmatlarini bozorga yo'naltirishda qiynaladi [25].

Xizmatlar bozorini ushbu o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ularni ko'rib bo'lmaslik, ushlab bo'lmaslik, saqlab bo'lmaslik, sifatini tez-tez o'zgarib turishi ishlab chiqarishni va iste'molni bir-biridan ajratib bo'lmaslik xizmatlar marketingin o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab beradi [26].

Xizmatlar – bu korxonalar, tashkilotlar va ayrim shaxslar tomonidan ikkinchi tomonga ko'rsatiladigan faoliyat turi bo'lib, u mijozning mulkiga aylanmaydi. Xizmatlarga – moddiy boylik yaratilmaydigan (ayrim xizmat turlaridan tashqari), foydali faoliyatning barcha turlari kiradi. Xizmat iste'molchiga (xaridorga) faoliyat orqali beriladi, tovar esa qo'ldan – qo'lga o'tkazish orqali beriladi. Birinchi marotaba, xizmatni fizik tovardan asosiy jihatlari bo'yicha farqlanishini 1980 – yilda Leonard Berri tomonidan berildi : unga ko'ra, fizik tovar – bu predmet, uskuna, jihoz yoki narsadir, xizmat esa ish, harakat, zo'r berish, tirishish yoki bajarish hamda ijro etishdir.

Demak, xizmat – bu korxonalar va ayrim shaxslar tomonidan, aynan shunday ikkinchi tomonga ko'rsatiladigan faoliyat turi bo'lib, uni ushlab, ko'rib bo'lmaydi hamda u mijozning mulkiga aylanmaydi. Xizmatni ko'rsatish natijasida, fizik mahsulot yaratilishi va yaratilmasligi ham mumkin.

Xizmat insonlar va asbob-uskuna yordamida ko'rsatilishi mumkin; mijozning ishtirokida va ishtirokisiz ko'rsatiladi; shaxsiy yoki korxonalar ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin; tijorat va notijorat xarakterga ega bo'lishi hamda xususiy va jamoat

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladi [3]. Biroq, har qanday xizmatlar, korxonaning marketing faoliyatiga kuchli ta'sir etadigan quyidagi to'rtta o'ziga xos xususiyatlarga egadir, ya'ni ko'rib va ushlab bo'lmaslik, ishlab chiqarishni va iste'molni bir-biridan ajratib bo'lmaslik, sifatini tez-tez o'zgarib turishi va saqlab bo'lmaslikdir. Xulosa qilib, shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz hududlarida 2026 yilning yakuniga qadar servis sohalari ko'lamini kengaytirish orqali xizmat ko'rsatish xajmi uch barobar oshiriladi va buning evaziga 3,5 millionta yangi ish o'rni yaratiladi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida 76,3 % kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keladi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 59,7 % ga yetdi. Taqqoslash uchun: xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlar ulushi o'tgan yilning shu davrida 58,5 % ekvivalentida qayd etildi. [4]

Kichik tadbirkorlik sektori barqaror iqtisodiy o'sishga, ish o'rinlari yaratishga, daromadlarning o'sishiga va aholining farovonligini ta'minlashga hissa qo'shmoqda. Hozirgi kunda xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiati, ularning maqsadi, faoliyat turlarining va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funktsiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir [27].

Bugungi kunda xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Hududiy siyosat maqsadlariga faqat iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan loyihalarni amalga oshirish orqali erishish mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda hududlarning moliyaviy salohiyatini yuksaltirish va unda xizmatlar sohasining rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda [3]. Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi [28]. Mamlakatimizda postindustrial axborot jamiyati shakllanishi bilan xizmatlar sohasining roli tobora oshib boradi, chunki aholining ehtiyojlari doimiy ravishda o'sib boradi va ularning xilma-xilligi doimiy ravishda kengayib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бурменко Т.Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. – Москва: КНОРУС, 2007. – 328 с.
2. Кастельс М. Информационная эпоха: Экономика, общество и культура: Пер. с англ. Под. ред. О.И. Шкаратана. – Москва: ГУВШЭ, 2000.
3. Ураков Ж.Р. Хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятлари самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизми (Самарқанд вилояти мисолида) // Иқт. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: СамИСи. 2011. 15-16 б.
4. Xalliyeva N.R. "Turizm sohasini rivojlantirishning aholi bandligini ta'minlashga ta'siri (Buxoro viloyati misolida) // PhD....diss.-Toshkent: TDIU 2023.
5. Karomatovna M. J. WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2023. – Т. 3. – №. 2. View of WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS (sciencesage.info)
6. Musayeva J. K. O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA AKTIVLARNI BOSHQARISHNING O 'RNI VA ROLI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 554-564.
7. Karomatovna M. J. IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //British View. – 2023. – Т. 8. – №. 5. View of IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN | British View
8. Musaeva J. K., Khalilova M. A. FEATURES OF INVESTMENT PROCESSES OF THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 618-628. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3763/3615> DOI: <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/BGTE7>
9. Musayeva J.K. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda korxona aktivlarini boshqarish, globallashtirish va integratsiya jarayonlarining ta'siri. СОЛИҚ ВА ҲАЁТ ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ ОММАБОП ЖУРНАЛ, II СОН. 2023, 13-19-bet
10. Mukhsinov B., Yuldasheva S. Jamila Musaeva International journal of advanced science and technology vol. 29, no. 5, (2020) //issn. – 2005. – Т. 4238. – С. 1922-1926.
11. Musaeva J.K. Evaluation of the fixed capital of enterprises and the main ways of their effective use. "ЛОГИСТИКА ВА ИҚТИСОДИЁТ" илмий электрон журнали. 2022 йил 2 СОН. 70-77 bet
12. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. Қ. КОРХОНАЛАРНИНГ АСОСИЙ КАПИТАЛИНИ БАҲОЛАШ ВА УЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

ЙЎНАЛИШЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 200-217.

13. Мусаева Ж. К. ОЦЕНКА ОСНОВНОГО КАПИТАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ И ОСНОВНЫЕ ПУТИ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ //Журнал Инновации в Экономике. – 2022. – Т. 5. – №. 3.

14. Karomatovna M. J. Efficiency of introducing innovative approaches in higher education in uzbekistan //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1266-1275.

15. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 283.

16. Мусаева Ж. К. РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА ТАЪЛИМДА РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

17. Мусаева Ж. К. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 288.

18. Мусаева Ж. К. САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА АСОСИЙ КАПИТАЛДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎЛЛАРИ //Журнал Инновации в Экономике. – 2021. – Т. 4. – №. 6.

19. Karomatovna M. J. MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES IN UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC GLOBALIZATION //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 12. – С. 1434-1441.

20. Karomatovna M. J. Economic thoughts in the works of alisher navoi and their role in the development of society //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 1524-1531.

21. Мусаева Ж. К., Алимова Д. Д. ОСОБЕННОСТИ И РОЛЬ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. – 2020. – Т. 2. – №. 1.

22. Мусаева Ж. К., Жумаева Д. Х. Особенности анализа основных фондов и инвестиций на предприятиях //Бенефициар. – 2019. – №. 52. – С. 7-10.

23. Musaeva J. K., Elmurodov S. S., Yuldasheva S. N. ROLE OF CURRENCY RELATIONS IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //Бенефициар. – 2019. – №. 44. – С. 22-25.

24. Мусаева Ж. К., Халилова М. ОСОБЕННОСТИ И РОЛЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЭТИКИ ПРОТИВ ГМО В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА //ББК 65.0501 А 43. – 2019. – С. 64.

25. Мусаева Ж. К. ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СТИМУЛИРОВАНИЕ КАЧЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ РЕАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ //Интернаука. – 2018. – №. 22-1. – С. 63-65.

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

26. Пулотов Ш. Ш., Ходжиева С. Ш. СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ В УСЛОВИЯХ ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 955-959.

27. Khalilova, M. N., and Pulotov Sh Sh. "Actuality of Public Finance Management System in The Republic of Uzbekistan: Main Directions, Stages, Prospects for Improvement." European Journal of Economics, Finance and Business Development 1.3 (2023): 1-3.

28. Shavkatovich P. S., Narzullayevna B. S., Rasulovna K. G. INCREASING THE INVESTMENT ACTIVITY OF PRODUCTION ENTERPRISES IN THE CONDITIONS OF THE DIGITAL ECONOMY //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – T. 15. – С. 31-34.